

O'ZBEKISTON IQTISODIYOTI SHAROITIDA SAVDODAGI IMTIYOZLAR VA NARX- NAVO SIYOSATI

Akramov Izzatillo Murodjon o'g'li

Andijon iqtisodiyot va qurilish instituti 2-bosqich

Iqtisodiyot 02-20 guruh talabasi

E-mail: akramovizzatillo626@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6830816>

Annotatsiya: Ushbu maqolada hozirda mamlakatimizda imtiyoz berishning qanchalik darajada muhim yoki zarur emasligi borasida so'z yuritilgan. Qolaversa, chet el davlatlarida imtiyoz va narx-navo siyosati borasida olib borilayotgan islohotlar yoritilgan.

Kalit so'zlar: bozor muvozanati, tadbirkor, Soliq qo'mitasi, AQSh, Jahon Savdo Tashkiloti, transportirovka, byurokratiya, Singapur

Ba'zi bir xil alohida imtiyozlarning ko'lami kichkina bo'lgani uchun umumiyligi iqtisodiyotga ta'sir o'tkazmasa-da, ko'lami katta imtiyozlarning salbiy ta'siri bor. O'zi, imtiyozlar berilishining sababi – o'sha sohaga yetarlicha pul kirib bormayapti, deb hisoblash. Imtiyozlar o'sha sohaga ko'proq mablag'larni jalgan qilish uchun taqdim qilinadi. Buning falsafiy ildizi shundaki, biror sohaga imtiyoz berish – qayerga pul tikishni bozordan ko'ra men yaxshiroq bilaman deyishga teng. Bir sohaga imtiyozlarning berilishi boshqa sohalardan investitsiya va mablag'larni, inson kapitalini kamaytirish hisobiga amalga oshiriladi. Biz qaysidir sohaga imtiyoz bersak, investorlar shu sohaga pul tikishni boshlasa, ular boshqa sohalarga ajratishi mumkin bo'lgan pulni ushbu sohaga ajrata boshlashadi, ya'ni sun'iy tarzda bozor muvozanati buziladi. Ko'plab iqtisodiy xatti-harakatlarimizning tashqi ta'sirlari bor, masalan, men bir mahsulotni ishlab chiqarsam, ekologiyaga salbiy ta'sir ko'rsataman, ana shu salbiy jihat – tashqi ta'sir. Bu tashqi ta'sirning jamiyatga yetkazayotgan zarari mening buxgalterlik hisob-kitoblarimda aks etmaydi. Men 1000 so'mga olib, 500 so'm xarajat qilib, 2000 so'mdan sotyapman va 500 so'm foyda ko'ryapman, deb hisob-kitob qilaman, vaholanki men 500 so'm foyda qilayotgan bo'lsam-da, shu 500 so'mni deb jamiyatga 1000 so'mlik zarar keltirayotgan bo'lishim mumkin. Mana shu narsa – tashqi ta'sirlardir. Tashqi ta'sirlar ijobiy bo'lishi ham mumkin. Masalan, ta'lim. Tadbirkor daromad ko'rish maqsadida ta'lim muassasasi ochadi, lekin bu orqali jamiyatga bilvosita foyda ham keltiradi. Ya'ni ta'lim muassasasi ochgan tadbirkor 500 so'm topayotgan bo'lsa, jamiyat uning faoliyatidan 1000 so'm topayotgan bo'lishi mumkin. Yoki boshqa bir misol: kimdir bog' qilyapti. Bu bog' unga 0 so'm, jamiyat uchun esa 1000 so'm foyda keltiryapti. Demak, hukumatlar imtiyoz qo'llaydigan sohalar ijobiy tashqi ta'sirlarga ega bo'lishi

muhim. Shu bilan birga, salbiy tashqi ta'sirlarga ega sohalarga manfiy imtiyozlar qo'llash ham mumkin. Masalan, ekologiyaga zarar yetkazadigan faoliyat turlari uchun soliqlarni baland qilib qo'yish. Bu ham bozordagi muvozanatga aralashish bo'ladi, lekin biz rag'batlarni to'g'ri qo'yishimiz kerak. Bunda biror sohaga imtiyoz berishdan oldin bu sohaning tashqi ta'sirlariga qarash kerak. Umuman olganda esa qonuniyat tariqasida imtiyozlar berish yomon, degan bo'lardim. Imtiyozlarning hisoblangan zarari haqiqiy zarardan kam bo'ladi. Yaqinda Soliq qo'mitasi raisining o'rribosariga turli soliq imtiyozlari qanchalik samara bergani baholanadimi, deb savol berilganda: "Yo'q, baholanmaydi, lekin taklif bo'lsa, bu qiyin ish emas" degan bo'lgan edi. Balki bizdagi muammo ham imtiyozlar taqdim qilinib, uning yakuniy samarasi bilan hech kim qiziqmayotganidadir. Muammo shundaki, imtiyozlarning natijasini buxgalterlik jihatdan hisoblab chiqsa bo'ladi, lekin iqtisodiy oqibatlarni hisoblab bo'lmaydi. Iqtisodiy jihatni deganda men "Opportunity cost"ni nazarda tutyapman. Buni tushuntirish uchun, aytaylik, bir dehqonga ma'lum miqdorda yer berasiz va unga o'sha yerda bug'doy ekasan, deysiz. Dehqon o'sha yerda bug'doy ekadi va yilning oxirida 100 so'm zarar ko'radi. Siz esa aytasiz: "Ha, dehqonni bug'doy ekishni majburlashning salbiy tomoni – u 100 so'm zarar ko'rdi". Lekin 100 so'm zarar – buxgalterlik zarari. Iqtisodiy zarari esa o'sha dehqon bug'doy o'rnida boshqa narsa ekkanida nima bo'lardi, ana shunda. Agar dehqon bug'doy emas, masalan, kartoshka ekkanida 100000 so'm foyda qilishi mumkin edi, hozir 100 so'm zarar qildi. Bundan shu narsa kelib chiqadiki, dehqonni bug'doy ekishga majburlash qarorining iqtisodiy zarari 100 so'm emas, balki 10100 so'mni tashkil etadi.

Qaysidir sohaga imtiyoz berishingiz o'sha sohaga investorlarni jalb qiladi, agar imtiyoz bermaganingizda shu sohaga sarflangan pullar qaysi sohaning rivojlanishiga sabab bo'lgan bo'lardi, ana shuni hisoblab bo'lmaydi. Oldingizda ikki yo'l chiqsa, siz chapga ketsangiz, o'ngga ketganingizda nimalarga erishishingiz mumkinligi haqida umuman tasavvurga ega bo'lomaganingizdek, imtiyozlar berilmaganida qanday natijalarga erishilishi mumkinligi haqida ham aniq tasavvur qilish mushkul. Imtiyozlardagi eng katta muammo shundaki, biz bo'lishi mumkin narsa va bo'lgan narsa o'rtasidagi farqni topa olmaymiz. Natijada har doim zararlarni yetarli darajadan ancha kamroq hisoblaymiz. Ertaga biror tashkilot falon imtiyozning zarari 200 so'm bo'ldi, desa, bu – buxgalterlik zarari bo'ladi. Asl zarar ko'lамини esa bilolmaymiz, buning uchun eksperiment qilib ko'rish kerak bo'ladi. Eksperiment o'tkazish esa bu alohida mavzu. Imtiyozlar butun dunyoda bor, masalan AQSh yoki boshqa rivojlangan mamlakatlarda ham imtiyozlar bor, ammo ularda hukumatning vakolatlari ancha cheklangan. AQShni olaylik, Amerikada davlatning tijoriy korxonalarini yoki

davlat banklari deyarli mavjud emas. Iqtisodiyotda instrumentlar nuqtayi nazaridan hukumatning aralashuvi ancha kamroq, qolaversa, siyosiy bosim yuqori. Amerikada ko'plab imtiyozlar qishloq xo'jaligi sohasiga beriladi. Ba'zi shtatlarida soya yoki makkajo'xori kabi ekinlarni yetishtirishga yetarlicha imtiyozlar bor. Bu imtiyozlar yaxshimi yoki yomonmi deyilsa, albatta, yomon, ammo masalaning siyosiy jihatni bor: saylovlarda birinchi kokus Ayova shtatida bo'lib o'tadi, bu fermerlar shtati bo'lgani uchun saylanmoqchi bo'lgan siyosatchilar: "Biz makkajo'xoriga subsidiyalarni olib tashlamoqchimiz", desa, turgan gapki, saylovdan o'ta olmaydi. Qishloq xo'jaligi sohalariga subsidiya berish yomonligini AQSh prezidenti ham, aksariyat kongressmenlar ham biladi, lekin bu subsidiyalardan voz kechishning siyosiy xarajatlari nihoyatda baland, shuning uchun hech kim bunga jur'at etmaydi, chunki saylovda yutqazishi mumkin. Demak, AQShdagi imtiyozlar haqida gapirganda, bu imtiyozlarning aksari siyosiy bosim ostida berilishini ko'zda tutish kerak. Imtiyozlarning berilish tarixiga nazar soladigan bo'lsak ham, tor doiradagi guruhlarning hukumat va siyosatchilarni "garovga olishi" natijasida taqdim qilingan. XIX asrda po'lat ishlab chiqaruvchilar chetdan keladigan po'latga boj qo'yishni hukumatdan talab qilgan. XX asrning o'rtalarigacha esa chet elda ishlab chiqarilgan avtomobillarni Amerika bozoriga olib kirish uchun bojlar bo'lgan.

Dunyo rivojlangan sari, siyosatchilar o'zlarini mana shunday manfaatdor guruhlar bosimidan himoya qiladigan vositalarni o'ylab topa boshlashdi. Ulardan eng muhimi – Jahon Savdo Tashkiloti (JST). JSTning asosiy g'oyasi – siyosatchilarni tor doiradagi guruhlar bosimidan himoya qilish. Hozir aytaylik qaysidir po'lat ishlab chiqaruvchi boj joriy qilish uchun kongressmenlarga bosim o'tkazsa, ular aytadi: "O'rtoqlar, biz sizlar xohlagan bojni qo'yib beramiz, lekin buning ertasiga bizni JSTda sudga berishadi. Keyin bu bojlarni olib tashlashga to'g'ri keladi". Darhaqiqat, JSTdagi sudlarda eng ko'p yutqazgan mamlakat – AQSh. Bush ham, Obama ham bojlar qo'yardi, keyin qaysidir mamlakat AQShni sudga berar va Amerika yutqazardi. Oldinlari kongressmenlarga Karnegi yoki Ford tomonidan bosimlar qilinsa, bojni oshirishga majbur edilar. Keyinchalik siyosatchilar o'zlarini himoyalash uchun Jahon Savdo Tashkiloti kabi instrumentlarni joriy qilishdi. Imtiyozlar haqida gapirganimizda, ularning turi, ko'lami va siyosiy hisob-kitobi muhim. Demokratik mamlakatlarda bu narsalar murakkabroq. Bir necha turdag'i asosiy oziq-ovqat mahsulotlari uchun imtiyozlar berilganiga qaramay, bu mahsulotlar arzonlashmayapti. Narxning oshishi imtiyozlarga qanchalik bog'liq yoki bog'liq emasligini ayta olmaymiz, chunki imtiyozlar bo'lmasanida narx qanday bo'lardi degan savolga javobimiz yo'q. Lekin shunisi ma'lumki, narxning oshishiga qarshi

qaysidir sohalarga imtiyozlar berish ko'pincha yaxshi g'oya emas, chunki bu bozordagi muvozanatni buzadi. Gap shundaki, narxning oshishi bozordagi ishtirokchilarga mahsulotni ko'proq ishlab chiqarish, iste'molchilarga esa kamroq iste'mol qilish signalini beradi. Bozordagi narx reallikni aks ettiradi: oziq-ovqatga narx qimmatlashyaptimi, bu – tadbirkorlar uchun signal, ya'ni ko'proq ishlab chiqarish yoki olib kirish kerak degani. Biroq, O'zbekistonning geografik joylashuvi sabab transport xarajatlari qimmat, ayniqsa oziq-ovqat mahsulotlari uchun. Jahon bankining mamlakatlar mahsulotlarni eksport va import qilishiga qancha vaqt ketadi degan tadqiqotida, O'zbekiston uchun Belarusga nisbatan solishtirsangiz ham o'nlab barobar qimmatroq va uzoqroq vaqt talab etiladi. Masalan, ma'lum bir tovarni import qilishga Polshada 1 soat talab etilsa, bizda 160 soat kerak bo'lishi mumkin. Bu ham narxda o'z aksini topadi. Bizda nafaqat tayyor mahsulotlarga, balki xomashyo mahsulotlariga ham yuqori bojlar bor. Bojlar yuqoriligi, transportirovka qimmatligi va byurokratiya – bular narxni qimmatlashtiradi. Singapurga o'xshagan ochiq bozorga ega va transport xarajatlari arzon mamlakatlarda narx oshishiga nisbatan davlatda qanaqadir instrumentlar yo'q, chunki bozor shundoq ham ochiq.

XULOSA

Xulosa o'rinishda aytish mumkinki, iqtisodiyotda ko'p tovarlar bir-biriga bog'liq. Bitta tovarga boj qo'yishingiz boshqa tovarning narxi qimmatlashiga olib kelishi ham mumkin. Ya'ni boshqa narsalarga qo'yilgan bojlar siz arzonlashtirmoqchi bo'lgan mahsulotning narxiga ta'sir qilishi mumkin. Albatta, imtiyoz berishdan oldin har sohaning tashqi ta'sirlariga qarash kerak. Umuman olganda esa qonuniyat tariqasida imtiyozlar berish yomon, degan bo'lardim. Imtiyozlarning hisoblangan zarari haqiqiy zarardan kam bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qosimova G. Davlat byudjeti ijrosining g'aznachilik tizimi. O'quv qo'llanma. - T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2008;
2. <https://kun.uz/uz/news/2021/08/14/>
3. <https://soliq.uz/press-services/news/show/iqtisodiyotni-yanada-rivojlantirish-va-liberallashtirish--islohotlarning-mustahkam-poydevori>
4. <https://m.kun.uz/uz/news/2021/04/01/jb-ozbekiston-iqtisodiy-osishiga-doir-prognozlarini-yangiladi>